

O'QUVCHILARNING MORFOLOGIK VOSITALARNI NUTQIY USLUBLARDA QO'LLASH MALAKALARINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Baxrilloeva Parvina Suxrobjonovna

Samarqand davlat chet tillari instituti
Sharq tillari fakulteti 3-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19439226>

Annotatsiya. Ushbu maqola “O‘quvchilarning morfologik vositalarni nutqiy uslublarda qo‘llash malakalarini rivojlantirish usullari” mavzusi bo‘yicha yoritilgan.

O‘quvchilarning morfologik vositalarini nutqiy uslublarda qo‘llash malakalarini rivojlantirish ko‘nikmalari nutqning strukturaviy asoslaridan biri bo‘lib, so‘zlarning tuzilishi, ularning ma‘nosi va shakli bilan bog‘liq hisoblanadi. Morfologik vositalarni nutqda hamda so‘zlashuv ma‘daniyatiga to‘g‘ri va samarali qo‘llay olishlari zarur, chunki ular o‘z fikrini aniq va ravshan ifodalashga katta yordam beradi.

Abstract. This article is morphological tools in speech styles. “The relevance of developing students’ skills in applying morphological tools across various speech styles is significant in several aspects. Morphology is one of the structural foundations of speech, dealing with world structure, meaning, and form. It is essential for students to use morphological tools correctly and effectively in speech and communication culture, as it greatly assists them in expressing their thoughts clearly and vividly”.

Kalit so‘zlar. Morfologik vositalar va nutqiy uslublarning nazariy asoslari, nutqiy uslublarning va ularning lingvistik xususiyatlari, morfologik vositalarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar, Morfologik vositalar haqida umumiy tushuncha.

Kirish. Til - insoniyat va jamiyatning eng muhim aloqa vositasi bo‘lib, u murakkab va ko‘p qatlamli tizimdan iboratdir. Tilshunoslik fanida til bir necha bo‘limlarda o‘rganiladi: fonitika (tovushlar tizimi), leksikologiya (so‘z boyligi), morfologiya (so‘z shakllari va tuzilishi), sintaksis (gap tuzilishi) va boshqalar.

Morfologiya – tilshunoslikning so‘z turkumlari, ularning shakllanishi, o‘zgarishi va ichki tuzilishini o‘rganuvchi bo‘lim. Morfologiya (yunoncha morphe – shakl, logos- ta‘limot)-so‘zlaridan olingan bo‘lib, so‘zlarning tarkibiy qismlari (o‘zak va qo‘shimchalar) va ularning grammatik ma‘nolarini tahlil qiladi.

Morfologik vositalar - bu tilning grammatik ma‘nolarini ifodalash uchun xizmat qiladigan shakliy vositalardir. Ular yordamida so‘zlar turli grammatik ma‘nolarni bildiradi, o‘zgaradi va gap tarkibida o‘z vazifasini bajaradi. Mazkur mavzuda biz morfologik vositalarning mohiyati, turlari, vazifalari va til tizimidagi o‘rni muloqot jarayonida qanday ahamiyat kasb etilishi bo‘yicha o‘rganib o‘tamiz.

Morfologik vositalar bu - grammatik ma‘nolarini ifodalash uchun xizmat qiladigan qo‘shimchalar, yordamchi so‘zlar, urg‘u, takror, ichki o‘zgarishlar kabi shakliy vositalar hisoblanadi. Morfologik vositalarni bir necha turlarga bo‘lib o‘rganamiz.

1. Affiksatsiya usuli.
2. Yordamchi so‘zlar orqali ifodalash.
3. Ichki o‘zgarish.
4. Takrorlash vositalari va boshqalar.

O‘quvchilarda bu malakani rivojlantirish bo‘yicha bir qancha turlarni o‘z ichiga oladi.

Masalan, matn tahlili uslubdagi matnlarni o'qib, morfologik vositalarni aniqlash hamda mashqlarni bajarish gaplardagi qo'shimchalarni to'g'ri qo'llashlarni o'rgatadi.

Morfologiyani o'rganish o'quvchilarning mustaqil va ijodiy tafakkur doirasini kengaytiradi, so'zning turli shakllarini o'rganish va yangi so'z hosil qilish, ularni o'zaro qiyoslash va tanlash, tanlab olingan so'zni gap tarkibida hamda bog'lanishli nuqtda o'rinni ishlatish ko'rikmalarini rivojlantirishga katta xizmat qiladi.

Nutqiy uslublar va ularning lingvistik xususiyatlari. Nutqiy uslub - til vositalarining ma'lum bir ijtimoiy soha va vaziyatga mos holda qo'llanishdir. Har bir uslubda so'z tanlash, grammatik shakllar, gap tuzilishi va ifoda usuli o'ziga xos bo'ladi.

Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi ma'lum soha doirasiga, ma'lum nutqiy vaziyatga xoslangan ko'rinishi nutq uslubi hisoblanadi. So'zlar ham ma'lum nutq uslubiga xoslanish va xoslanmaslik belgisiga ko'ra uslubiy xoslangan va uslubiy betaraf so'zlarga bo'linadi. Ayrim nutq uslubi doirasidagina qo'llanadigan so'zlar uslubiy xoslangan so'zlar, bunday xususiyatga ega bo'lmagan so'zlar esa uslubiy betaraf sanaladi. Nutq uslublari leksik-grammatik jihatdan farqlanib turadi. Masalan, so'zlashuv uslubida odatdagi tartib turlicha o'zgarib tursa, terminlar, murakkab tuzilgan qo'shma gaplar kam ishlatilsa, ilmiy uslubda buning aksi kuzatiladi. O'zbek tilida bir qancha nutq uslublari mavjud.

1. So'zlashuv uslubi.
2. Ilmiy uslub.
3. Rasmiy-idoraviy uslub.
4. Ommabop uslub.
5. Badiiy uslub.

Har bir uslubning shakllanishi muloqot maqsadi va sharoitiga bog'liq bo'lib, o'zbek tili lug'at boyligi va grammatik birliklaridan unumli foydalaniladi. Nutq uslublari davr o'tishi bilan mukammalashadi, o'zining barqaror vositalariga ega bo'lib, yangilanadi. Masalan, rasmiy ish, badiiy uslub o'tgan asrning 50-yillaridan so'ng boyidi, rivojlandi hamda publitsistik va ilmiy uslub esa yangidan paydo bo'ldi. Har bir nutq uslubida o'ziga xos yuklama va vazifalarga ega bo'ladi. So'zlashuv uslubida morfologiya erkin va sodda bo'ladi, badiiy uslub obrazlilikni ta'minlaydi, ilmiy uslub aniqlik va umumiylik birinchi o'rinda turadi, rasmiy-idoraviy uslub qat'iy qoliblar va rasmiylik asosiy belgisi hisoblanadi va publitsistik uslub so'zlashuv va badiiy uslub elementlarini ozida birlashtirib keladi.

Bugungi kunda dars o'tish jarayonlari an'anaviy hamda noan'anaviy tarzida o'tib kelinmoqda. Noan'anaviy dars o'tish jarayoni - bu zamonaviy texnologiyalar orqali dars o'tish jarayoni hisoblanadi. Metodlar, xususan, interfaol va zamonaviy ta'lim metodlaridan foydalanish ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'quvchilarning faoligini oshirish, bilimni chuqur o'zlashtirish va muammolarga yechim topish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Ular ta'lim sifatini oshiradi, darslarni qiziqarli hamda kreativ fikrlashni rag'batlantiradi. Zamonaviy texnologiyalar o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tahlil qilish va nutqda to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Morfologiyani o'qitishda qo'llanadigan asosiy zamonaviy pedagogik texnologiyalarni bir qancha turlari mavjud. Misol qilib, interfaol metodlar, aqliy hujum metodi, klaster va insert metodlarini keltirib o'tsak bo'ladi. Har qanday metod muayyan nazariya asosida yaratiladi va tadqiqotning zaruriy sharti sifatida namoyon bo'ladi.

Har bir metodning samaradorligi uning chuqur mazmuni va mohiyatiga egaligi, nazariyaning fundementalligi bilan asoslanadi.

O'znavbatida, metod mazmuni kengayib boradi, ya'ni bilimning chuqurlashishi va kengayishi, tajribaga tatbiq etilishi bilan metodning ko'lami ham o'zgarib boradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytish mumkinki, morfologik va sintaktik birliklar real olamdagi xilma-xil mazmun va munosabatlarni turli nuqtai nazaridan ko'rsata oladi.

Har bir nutq uslubi o'ziga xos morfologik qurilmalarga tayanadi: ilmiy uslubda aniq va mantiqli shakllar ustuvor bo'lsa, badiiy uslubda tasviriylik va obrazlilik, publitsistik uslubda esa ta'sirchanlik va undovchanlik mezonlari asos bo'ladi.

Shuningdek, rasmiy uslub va og'zaki nutq uslublarida ham morfologik vositalar nutq egasining maqsadi, holati va muhitiga qarab moslashuvchan shaklda xizmat qiladi. Demak, morfologik vositalarni turli nutqiy uslublarda mahorat bilan qo'llay bilish - bu nafaqat tilni puxta egallash ko'rsatkichi, balki ifoda madaniyati, uslubiy sezgirlik va fikrni aniq yetkazish san'atidir.

Bu vositalarning to'g'ri ishlatilishi orqali til imkoniyatlari to'liq ochiladi, milliy tafakkur va madaniyatning boyligi esa yanada porlaydi.

FOYDALANILGAN ADABYOTLAR

I.Siyosiy adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. - Toshkent: O'zbekiston, 2022.- 418 b.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
3. Wilson- Fowler, E.B, &Apel, K.(2015). "Morfologik xabardorlikning kollej talabalarining savodxonlik ko'nikmalariga ta'sir: yo'l - analitik yondashuv" B. To'xliyev, M.Shamsiyeva, T.Ziyodova. O'zbek tili o'qitish metodikasi.
4. Kurbonova, M. Yo'ldoshev "Matn tilshunosligi" Tosh.2014.74-bet
5. To'xliyev B, SHamsiyeva M, Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. - Toshkent, Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2010.- 186 b.
6. Z.Xolmonova, T. Yusupova. O'zbek tilini o'qitish metodikasi.

II. Internet manbalar

7. <https://uz.wikipedia.org>
8. www.ziyouz.com
9. <https://tsuul.uz>
10. <https://arxiv.uz>
11. <https://Docx.uz>